Obuna indeksi - **904**

ISSN 2181-8088

XALQ TA'LIMI 3-maxsus / 2020

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

3
maxsus
2020

www.xtjurnali.zn.uz
https://t.me/xalqtalimijn

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TASHKIL ETILISHI – KELAJAKKA QO‘YILGAN QADAM

Bir kishini savodli qilish orqali jamiyatni, jamiyatni ma’rifatli qilish orqali butun bir millatni ziyoli qilish, pirovardida esa buyuk kelajakni barpo etish mumkin. Bu isbot talab qilmas – aksioma.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar qatorida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mazmun-mohiyati yosh avlod kamolotiga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan, poytaxt viloyatida ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. Ya’ni, Toshkent viloyati maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, boshqacha aytganda, uzluksiz ta’lim tizimining barcha jabhalarini atroflicha o‘rganib chiqildi va mazkur integratsiyaning ustuvorligi ta’minlanishiga zamin yaratildi.

Ayniqsa ilm-fan, ishlab chiqarish hamda ta’lim jarayonini hayot bilan bog‘lash, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishishi esa, belgilab olingan natijalarga erishishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Galdagi vazifa o‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan balki, raqobatbardoshligi, yangi ta‘lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega bo‘lgan kompetent kadrlarni tayyorlash ya’ni, pedagogik ta’lim innovatsion klasterining sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarilishiga erishishdir.

Shuni ta’kidlash joizki, pedagogik ta’lim innovatsion klasterining bosh maqsadi dastlab viloyatdagi barcha ta’lim muassasalarining sifat va samaradorligini ko‘tarish orqali mamlakatimizga raqobatbardosh kadrlar yetishtirib berish, “Yuqori kurslar quyi kurslarga ta’lim-fan-tarbiya-ishlab chiqarish uchun “yadro” bo'lishi tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, bugungi kunda institutni rivojlantirish tamoyili “Bilim-bilimga” mazmunida namoyon bo‘lmoqda. Bu joriy yilda o‘nlab xodimlarning ilmiy ishlarini yakunlayotganligi va 100 nafarga yaqin pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotganligi, xalqaro hamda Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi ilmiy jurnallardagi faolliklarida o‘z aksini topmoqda.

Institut jamoasining davlatimiz oldidagi burchini sharaf bilan uddalashiga, xalqimizga ma’rifat va ziyo tarqatish yo‘lidagi xayrli ishlarida ulkan muvafaqqiyatlar qozonishiga ishonamiz.

G‘ofurjon MUHAMEDOV,
Toshkent viloyati
Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori,
kimyo fanlari doktori, professor

HURMATLI USTOZ VA MURABBIYLAR!

“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta’limi axborotnomasi” jurnallari bugungi kunda o‘qituvchi-pedagoglarning eng kerakli nashriga aylanib, ularga yaqin ko‘makchi bo‘lmoqda. Uning sahifalarida nashr etilayotgan maqolalardan o‘qituvchilar dars jarayonida, mashg‘ulotlarda, seminar-treninglarda foydalanayapti.

2020-yilda jurnallarimiz o‘z faoliyatini yanada takomillash-tirishni maqsad qilgan. Sahifalarimizda uzluksiz ta’lim tizimidagi eng so‘nggi yangiliklar, texnologiyalar, metodlar ilmiy-metodik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Shu bois, jurnallarimiz har bir o‘qituvchi-pedagog qo‘lida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2020-yilga obuna davom etadi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik va “Xalq ta’limi axborotnomasi” jurnallariga obuna bo‘lishni unutmang.

Obuna indekslari:
“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali – **904**
“Xalq ta’limi axborotnomasi” jurnali – **924**